

# O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 dekabrda «Suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylarida ihota va daraxtzorlar barpo etish hamda hududlarni obodonlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1004-sonli qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 dekabrda «Suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylarida ihota va daraxtzorlar barpo etish hamda hududlarni obodonlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1004-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

## Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 dekabrda «Suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylarida ihota va daraxtzorlar barpo etish hamda hududlarni obodonlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1004-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish amaliy chora-tadbirlari rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

b) Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'yida ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish loyihalari bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tegishli «Suv qurilish invest» DUK-buyurtmachi etib;

bosh loyihachi tashkilot - eng yaxshi takliflarni tanlash asosida, tanlov savdolari o'tkazmasdan;

bosh pudratchi tashkilot - qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladigan tanlov savdolari natijalari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tejalgan xorijiy investitsiyalar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar - moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi;

v) 2018 yildan boshlab:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida tejalgan byudjet mablag'larini qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida» 2017 yil 27 noyabrda PQ-3405-son qarorining 11-ilovasida ko'rsatilgan investitsiya loyihalari doirasida tejalgan mablag'lar hisobiga amalga oshirilayotgan qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirishda daraxtlar va butazorlarni sanitariya maqsadida kesish ishlarining to'lovlarsiz amalga oshirilishiga ruxsat berilganligi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan birgalikda - tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini asosida amalga oshirilayotgan qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlari barpo etilishiga, rekonstruksiya qilinishiga hamda hududlarning obodonlashtirilishiga belgilangan tartibda er uchastkalari ajratilishini ta'minlash topshirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi:

bir oy muddatda, tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish uchun daraxtlar turlarini aniqlash;

qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo'jaligi ob'ektlari bo'ylab ihota va ko'kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun shartnoma asosida pudratchi tashkilotlarni zarur turdagi va miqdordagi ko'chatlar bilan ta'minlash topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida Qoraqalpog`iston Respublikasida qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab ihota va ko`kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish amaliy chora-tadbirlari rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanlar hokimliklari Qoraqalpog`iston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, er resurslari va davlat kadastri boshqarmasi, Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi bilan birgalikda - tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida amalga oshirilayotgan qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab ihota va ko`kalamzorlashtirish daraxtzorlari barpo etilishiga, rekonstruksiya qilinishiga hamda hududlarning obodonlashtirilishiga belgilangan tartibda er uchastkalari ajratilishini ta`minlasinlar.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi O`rmon xo`jaligi qo`mitasi:

20 kun muddatda, tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab ihota va ko`kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish uchun daraxtlar turlari aniqlansin;

qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab ihota va ko`kalamzorlashtirish daraxtzorlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish hamda hududlarni obodonlashtirish bo`yicha loyihalarni amalga oshirish uchun shartnoma asosida pudratchi tashkilotlarni zarur turdagi va miqdordagi ko`chatlar bilan ta`minlasin.

6. Tuman hokimliklari:

Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi bilan birgalikda qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab barpo etiladigan va rekonstruksiya qilinadigan ihota va ko`kalamzorlash-tiriladigan hamda obodonlashtiriladigan hududlarni er uchastkalari bilan ta`minlash, ularning saqlanishi va foydalanilishi yuzasidan zarur choralar ko`rsinlar;

barpo etilgan va rekonstruksiya qilingan ihota va ko`kalamzor-lashtirish daraxtzorlarini parvarish qilish, shuningdek, belgilangan tartibda boshqa shaxslarga berilgan obodonlashtirish ob`ektlari va er uchastkalaridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta`minlasinlar.

7. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo`mitasi qurilgan va rekonstruksiya qilingan suv xo`jaligi ob`ektlari bo`ylab barpo etilgan va rekonstruksiya qilingan ihota hamda ko`kalamzorlashtirish daraxtzorlarini muhofaza qilish yuzasidan belgilangan tartibda tegishli nazorat o`rnatsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o`z zimmasida qoldiraman.

**Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi**

**Q.Sariev**

*Ko'rip shi'g'i'ldi:*



[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)